



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI**

**MINISTRY OF HEALTH OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN
TASHKENT MEDICAL ACADEMY**

100109, Toshkent sh., Farobiy ko‘chasi -2-uy. Tel.: (+998-78) 150-78-25, (+998-71) 214-83-11 Fax: (+998-78) 150-78-28
Website: www.tma.uz, e-mail: info@tma.uz

2023 yil “4” may

01-02980 - son

**Toshkent tibbiyot akademiyasi Ilmiy kengashi yig‘ilishining
10-sonli BAYONI**

Toshkent shahar

«26» aprel 2023 yil

Raislik qiluvchi: Sh.A.Boymuradov

Toshkent tibbiyot akademiyasi
O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor

Qatnashdilar:

Toshkent tibbiyot akademiyasining
Ilmiy kengashi a‘zolari
(ro‘yxat bo‘yicha)

KUN TARTIBI

1. Toshkent tibbiyot akademiyasining (keyingi o‘rinlarda – Akademiya) Urganch va Termiz filiallari direktorlarining xisoboti.

Ma‘ruzachi – Urganch filiali direktori Ruzibaev Rashid Yusupovich, Termiz filiali direktori Otamurodov Furkat Abdukarimovich.

2. 1-Davolash fakulteti hisoboti.

Ma‘ruzachi – 1-Davolash fakulteti dekani Xalmatova Barno Turdixodjaevna.

3. Professor-o‘qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash.

Ma‘ruzachi – Tanlov komissiyasi raisi.

4. Dissertatsiya, monografiya va o‘quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash.

Ma‘ruzachi – O‘quv-uslubiy boshqarma boshlig‘i Azizova Feruza Xusanovna,
Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo‘limi boshlig‘i Muminova Ziyoda Abrarovna.

5. Turli masalalar.

Kun tartibi ovozga qo‘yildi va bir ovozdan qabul ma‘qullandi.

QAROR QILADI:

1.Kun tartibining birinchi masalasi bo'yicha "Toshkent tibbiyot akademiyasining (keyingi o'rinlarda – Akademiya) Urganch va Termiz filiallari direktorlarining xisoboti" mavzusi yuzasidan Urganch filiali direktori Ruzibayev Rashid Yusupovich va Termiz filiali direktori Otamurodov Furkat Abdulkarimovichlarning ma'lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma'ruzalar matnda keltirilgan).

1.1.Akademiyaning Urganch va Termiz filiallarining rivojlanish strategiyasining to'liq transformatsiyasini amalga oshirish jarayonida moddiy-texnik bazalarini takomillashtirishga qaratilgan, jumladan ta'mirlash-qurilish ishlarini olib borish, kerakli o'quv- texnik vositalarini (kompyuter, interaktiv doska va boshqa simulyatsion ta'limga oid asbob uskunalari) harid qilish bo'yicha chora-tadbirlar ishlab chiqilsin.

Mas'ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov.

Muddat: 2022/2023 o'quv yili davomida.

1.2.Akademiya filiallari professor-o'qituvchilarining pedagogik mahoratini oshirish maqsadida Akademiya kafedralarida mutaxassisliklar kesimida maqsadli o'qitish va malaka oshirish bo'yicha ishlar kuchaytirilishi ta'minlansin.

Mas'ul: Akademiyaning O'quv ishlari bo'yicha prorektori Sh.A.Boymurodov, Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov.

Muddat: 2022-yil aprel-iyun.

1.3.Akademiyaning Urganch va Termiz filiallarining rivojlanish strategiyasining amalga oshirish jarayonida xorijning nufuzli oliy tibbiy ta'lim muassasalari va markazlari bilan hamkorlik aloqalari ishlab chiqilgan integratsiya dasturlari asosida olib borilishi ta'kidlab o'tilsin.

Mas'ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov.

Muddat: 2022/2023-o'quv yili davomida.

1.4.2023-2024 o'quv yili Urganch filialida Stomatologiya, Biotibbiyot muhandisligi (Evropa ittifoqi davlatlari bilan), Kosmetologiya va xirurgiya (Turkiya bilan), Xalq tabobati (Xitoy bilan) yo'nalishlari bo'yicha qo'shma ta'lim dasturlari ochilishi bo'yicha reja ishlab chiqilsin.

Mas'ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev.

Muddat: 2022/2023-o'quv yili davomida.

1.5.Urganch filiali va viloyat sog'liqni saqlash boshqarmasi tibbiyot muassasalari bilan klaster tashkil qilinishi yo'lga qo'yilsin.

Mas'ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev.

Muddat: 2022/2023-o'quv yili davomida.

1.6. Filiallar professor-o'qituvchilarining o'quv va ilmiy salohiyatini oshirish maqsadida nufuzli xorijiy ta'lim va ilmiy markazlar muassasalari yetakchi olimlari shartnoma asosida o'quv jarayoniga jalb etilishi ta'minlansin, shuningdek, fillial o'qituvchilari xorijda o'z malakalarini oshirishlari yo'lga qo'yilsin.

Mas'ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov.

Muddat: 2022/2023-o'quv yili davomida.

1.7. Akademiya filiallarida ilmiy-tadqiqot ishlar sifatini oshirish maqsadida zamonaviy, yangi asbob va uskunalar, kerakli reaktivlar bilan jihozlangan laboratoriyalar, vivariy va boshqa klinik - eksperimental bo'limlar ochilishi bo'yicha takliflar kiritilsin.

Mas'ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov.

Muddat: 2022/2023-o'quv yili davomida.

1.8. Akademiya filiallarining kutubxonalaridagi o'quv va elektron adabiyotlarni ko'paytirish, elektron manbalardan foydalanish, raqamli ta'lim texnologiyalarni rivojlantirish, shuningdek Akademiyaning elektron kutubxonalaridan foydalanish jarayonlari bo'yicha ishlar kuchaytirilsin.

Mas'ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov.

Muddat: 2022/2023-o'quv yili davomida.

1.9. Akademiya filiallarining pedagoglaridan xorijiy tajribaga asoslangan holda ilg'or pedagogik va innovatsion texnologiyalarni hamda dars jarayonlarida axborot kommunikatsion texnologiyalarni keng qo'llanishi talab etilsin.

Mas'ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov.

Muddat: Doimiy.

1.10. Akademiya filiallari professor-o'qituvchilarining ilmiy-pedagogik salohiyatini oshirish maqsadida pedagoglarni shahsiy rejalari bajarilishi natijalari bo'yicha rag'batlantirish yoki chora ko'rish ishlari yo'lga qo'yilsin.

Mas'ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov.

Muddat: doimiy.

1.11. Akademiya filiallarining har bir fakultet va ilmiy kengashlarida barcha kafedralar va professor – o'qituvchilar kesimida ilmiy salohiyatlari, jumladan ilmiy va o'quv mahsulotlari monitoringi muhokama qilinishi va nazoratga olinishi ta'minlansin.

Mas'ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov.

Muddat: doimiy.

1.12. Akademiya filiallarida tahsil olayotgan doktorantlar, magistr va klinik ordinator - talabalar uchun barcha shart-sharoitlar tubdan yangilanishi amalga oshirilsin, shuningdek, barcha professor – o'qituvchilarning ilmiy mavzulari tasdiqlanishi ta'minlansin.

Mas'ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov.

Muddat: doimiy.

1.13. Akademiya filiallarida iqtidorli talabalarni saralash mezonlari bo'yicha aniqlash, tarbiyalash va ular bilan maqsadli (nomdor stipendiyalarga tayyorlash, magistratura, ordinatura, doktoranturaga jalb etish) ishlash bo'yicha takliflar kiritilsin.

Mas'ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov.

Muddat: Doimiy.

1.14. Filiallarning professor-o'qituvchilari tomonidan Respublika ilmiy loyihalar tanlovlarida ishtirok etishi va ilmiy loyihalar (grant) ga ega bo'lishi hamda xo'jalik shartnomalar asosida ishlar olib borilishi ta'minlansin.

Mas'ul: Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov.

Muddat:Doimiy.

1.15. Termiz filiali hududdida "Quyosh elektr panellari"ni hamda TTJ lardagi "Ko'mirga mo'ljallangan qozonxonalar"ni barpo etish va qozonlarni o'rnatish bo'yicha ishlar jadallashtirilsin.

Mas'ul: Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov.

Muddat: 2023-yil davomida.

1.16."2023 yil – Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" da Akademiya filiallarida sifatli ta'lim tizimini kuchaytirish va yaratish hamda transformatsiya qilish maqsadida xorijiy nufuzli "Oliy ta'lim muassasalar" tajribasi o'rganilishi va solishtirilishi va uning natijasida barcha mutaxassisliklar bo'yicha o'quv jarayonini tashkil etilishi va raqamlashtirilishi, baholash tizimi, talabalarning nazariy bilimlari va amaliy ko'nikmalari malakaviy kompetensiyaga mosligi, professor-o'qituvchilarning pedagogik mahorati, ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarni olib borilishi bo'yicha kerakli xulosalar olib amaliyotga tadbiq etilishi ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Urganch filiali direktori R.Y.Ruzibayev, Termiz filiali direktori F.A.Otamurodov.

Muddat: 2023- yil davomida.

2. Kun tartibining ikkinchi masalasi bo'yicha "1-son davolash fakulteti hisoboti"– mavzusi yuzasidan 1-son davolash fakulteti dekani Xalmatova Barno Turdixodjayevnaning ma'lumoti axborot va ijro uchun qabul qilinsin (ma'ruza matnda keltirilgan).

2.1. Akademiyaning barcha kafedralariga kelayotgan guruhlar sonini optimallashtirish maqsadida dars jadvalini tuzishda mahsus dasturlardan foydalanish, bu borada boshqa OTMLar tajribasini o'rganish yo'lga qo'yilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari.

Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.

2.2. Kafedralarda qoldirilgan darslarni qayta topshirish tizimini tubdan o'zgartirish bo'yicha takliflar kiritilsin, shuningdek talabalar uchun ID kartaning joriy qilinishi ko'rib chiqilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2022/2023-o'quv yili davomida.

2.3. 4-6 kurslarda 1 ta rus tilida va 1 ta o'zbektilida "Liderlar" guruhi tashkil qilinishi bo'yicha takliflar kiritilsin.

Mas'ul: fakultet dekanlari.

Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.

2.4. Har bir kursda kamida 2 tadan ingliz tili guruhini tashkil qilishishi bo'yicha takliflar kiritilsin hamda shu guruh talabalarini akademik mobillikga jalb etilishi ko'rib chiqilsin.

Mas'ul: fakultet dekanlari.

Muddat: 2023/2024-o'quv yili davomida.

2.5. Talabalarning amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishlarini avtomatizm darajasiga yetkazish maqsadida kafedralar simulyatsion markaz imkoniyatlaridan to'liq foydalanishi, shuningdek malakaviy amaliyot imtihonlarini OSKI tarzida o'tkazilishi yo'lga qo'yilsin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, marketing va malakaviy amaliyot bo'limi boshlig'i I.Otajonov, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2022/2023-o'quv yili davomida.

2.6. Kafedralarda tashkil qilingan to'garaklardagi talabalar sonini ko'paytirilish, ularni fan bo'yicha TIJ, konferentsiya va olimpiadalarda ishtirokini faollashtirilish ta'minlansin.

Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Iqtidorli talabalar bilan ishlash bo'limi boshlig'i F.B.Abdumalikova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2022/2023-o'quv yili davomida.

2.7. Barcha kafedralarda o'quv, ilmiy mahsulotlar chiqarish rejasini bajarilishini nazorat qilinish va muntazam ravishda monitoringini olib borilish ta'minlansin.

Mas'ul: O'quv ishlari bo'yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O'quv-uslubiy boshqarma boshlig'i F.X.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A. Muminova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2022/2023-o'quv yili davomida.

2.8. Ilmiy salohiyati 60% dan past bo'lgan kafedralarda xodimlarning ilmiy ishlari bajarilishi monitoringi yuritilishi yo'lga qo'yilsin.

Mas'ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor F.L.Azizova, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i Z.A. Muminova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2022/2023-o'quv yili davomida.

2.9. Barcha kafedralarning xo'jalik shartnomalari, grant loyihalarida faol ishtirok etishlari kuchaytirilsin.

Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor F.L.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2022/2023-o’quv yili davomida.

2.10. Barcha Akademiya kafedralarida xodimlarning ingliz tilini bilish darajasini oshirish va sertifikatga ega bo’lishi bo’yicha ishlar jadallashtirilsin, shuningdek, Akademiya tomonidan tashkil qilingan Til markaziga xodimlarning ishtiroki kafedra mudiri tomonidan nazorat qilinishi ta’minlansin.

Mas’ul: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor F.L.Azizova, fakultet dekanlari, kafedra mudirlari.

Muddat: 2022/2023-o’quv yili davomida.

2.11. Barcha kafedralarda reyting qaydnomalari va reyting daftarchasini to’liq raqamlashtirilishi ta’minlansin, shuningdek dekan va barcha kafedra mudirlari elektron imzo orqali to’liq ish yuritilishlari yo’lga qo’yilsin.

Mas’ul: O’quv ishlari bo’yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, O’quv-uslubiy boshqarma boshlig’i F.X.Azizova, fakultet dekanlari.

Muddat: 2022/2023-o’quv yili davomida.

3. Kun tartibining keyingi masalasi “Professor-o’qituvchilarni tanlov asosida lavozim va ilmiy unvonlarga saylash” bo’yicha ilmiy kotib G.A.Ismailova **professor** ilmiy unvoniga talabgorlar: 14.00.05 – Ichki kasalliklar ixtisosligi bo’yicha 2-son fakultet va gospital terapiya, nefrologiya va gemodializ kafedrasini mudiri tibbiyot fanlari doktori, dotsent O.O.Jabbarov, 14.00.30 – Epidemiologiya ixtisosligi bo’yicha epidemiologiya kafedrasini mudiri, tibbiyot fanlari doktori, dotsent G.S.Matnazarovalar nomzodlari tomonidan ariza tushganligi haqida ma’lumot berdi va hujjatlari bilan kengash a’zolarini tanishtirdi. So’ng saylov o’tkazildi (saylov hay’ati a’zolari va natijalari 1-ilovada keltirilgan).

4. Kun tartibining keyingi masalasi “Dissertatsiya, monografiya va o’quv-uslubiy ishlar mavzularini tasdiqlash” bo’yicha O’quv-uslubiy bo’limi boshlig’i F.X. Azizova va Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo’limi boshlig’i Z.A.Muminova tasdiqlash uchun taqdim etilgan ilmiy mahsulotlar hamda dissertatsiya mavzulari bilan tanishtirdi. (2-va 3-ilovada keltirilgan) va tasdiqlash uchun ovozga quyildi.

5. Turli masalalar bo’yicha Yoshlar masalalari va ma’naviy – ma’rifiy ishlar bo’yicha birinchi prorektor T.A. Bobomuratov, Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo’yicha prorektor F.L.Azizova, O’quv-uslubiy boshqarma boshlig’i F.X.Azizova, magistratura bo’limi boshlig’i A.A.Imamov, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlash bo’limi boshlig’i Z.A.Muminova, Reja-moliya bo’limi boshlig’i O.U.G’oipov chiqdilar.

5.1. Akademiya va Janubiy Koreyaning "Daegu Haany University" (DHU)ning o’rtasidagi hamkorlikni rivojlanishida qo’shgan samarali mehnati va xizmatlari uchun DHU prezidenti Byun Chang-Hoo ga Akademiyaning **Fahriy Professori** unvoni berilsin.

5.2. Mamlakatimizda muhim tadbir - O’zbekiston Respublikasi Yangi tahrirdagi Konstitutsiya loyihasi bo’yicha 30-aprel kuni o’tkaziladigan Referendum to’g’risida

barcha rahbar xodimlar qo‘l ostidagi xodim va talabalarga to‘liq va to‘g‘ri tushuncha berilsin. Referendumda Akademiyaning barcha professor-o‘qituvchilari, talabalar, magistr va klinik ordinatorlar hamda doktorantlar faol ishtirok etishlari ta‘minlansin.

5.3. Toshkent tibbiyot akademiyasi O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan e‘lon qilingan “Olima ayollar” tashabbuskor amaliy va innovatsion loyihalar tanlovining 78-turida ishtirok etish uchun "Aerogen xavf va ko‘kalamzorlashtirish darajasini hisobga olgan holda Toshkent shahar turar-joy mavzellarining ichki muhiti va havo basseynini optimallashtirish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqish" mavzusidagi amaliy loyiha Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tavsiya etilsin (loyiha rahbari- t.f.d., professor F.I.Salomova).

5.4. Toshkent tibbiyot akademiyasi O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan e‘lon qilingan “Olima ayollar” tashabbuskor amaliy va innovatsion loyihalar tanlovining 78-turida ishtirok etish uchun "Teri allergik kasalliklarini optimal davolash maqsadida antiallergik gupkalarni ishlab chiqarish" mavzusidagi amaliy loyiha Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tavsiya etilsin (loyiha rahbari- t.f.d., dotsent U.A.Toshkenboyeva).

5.5. Toshkent tibbiyot akademiyasi O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan e‘lon qilingan “Olima ayollar” tashabbuskor amaliy va innovatsion loyihalar tanlovining 78-turida ishtirok etish uchun "Yong‘in xavfsizligi jangovor kiyimlari uchun olovbardosh kompozitsiyalarni olish texnologiyasini ishlab chiqish va ularning toksikologik xususiyatlarini tadqiq etish " mavzusidagi amaliy loyiha Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tavsiya etilsin (loyiha rahbari–PhD, dotsent Kurbanova M.A).

5.6. Toshkent tibbiyot akademiyasi O‘zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish agentligi tomonidan e‘lon qilingan “Olima ayollar” tashabbuskor amaliy va innovatsion loyihalar tanlovining 78-turida ishtirok etish uchun “Tizza bo‘g‘imining degenerativ kasalliklarini erta tashxislash va davolashda yangi informatsion texnologiyalarni yaratish" mavzusidagi amaliy loyiha Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tavsiya etilsin (loyiha rahbari – t.f.d., professor S.U.Asilova).

5.7. Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga ilmiy-amaliy loyihalar tanlovida qatnashish uchun Akademiyaning 15 ta loyihalari tavsiya etilsin (4-ilova).

5.8. Akademiyaning qishki qabuli bo‘yicha o‘qishga kirgan magistratura talabalarining dissertatsiya mavzulari tasdiqlansin (5-ilova).

5.9. Dermatovenerologiya va kosmetologiya yo‘nalishi 1-kurs magistri Parpiyev Bekzod Rustamjon o‘g‘li Hindiston Respublikasi Gujrat shtatidagi “Sankalchand Patel University (SPU)” 3-oylik malaka oshirish kursiga taklif etilishi munosabati bilan ushbu muassasaga stajirovkaga borib kelishiga tavsiya etilsin.

5.10. O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2023 yil 6 mart 44-son buyrug‘i hamda Sog‘liqni saqlash vazirining 2023 yil 11 apreldagi 71-son buyrug‘iga binoan Akademiyaiga birlashtirilgan kollej va texnikum rahbarlari Akademiyaning Ilmiy Kengashi a‘zolari ruyxatiga kiritilsin.

5.11. 2023 yil Ramazon xayiti va o‘tkazilayotgan referendumda yoshlar ishtirokini oshirish, ularni har ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, o‘z sohasining yetuk mutaxassisi bo‘lib

yetishida ko‘maklashish maqsadida Toshkent tibbiyot akademiyasida to‘lov-kontrakt ta‘lim shaklida tahsil olayotgan ijtimoiy himoyaga muhtoj (ijtimoiy himoya bo‘yicha yuritiladigan turli davlat reestri daftarlariga tushgan, nogiron, boquvchisini yo‘qotgan, kam ta‘minlangan va moddiy yordamga muhtoj) talabalarning joriy kunda kontrakt to‘lovlaridan mavjud qarzdorliklari shakllantirilsin. (Boymuradov, Dustmuradov va barcha dekanlar). Shakllantirilgan ro‘yxatga muvofiq talabalarning kontrakt to‘lovlaridan mavjud qarzdorliklari, bir talaba uchun 3 000 000 (uch million) so‘mdan ortiq bo‘lmagan miqdorda Toshkent tibbiyot akademiyasining o‘z mablag‘lari hisobidan qoplab berilsin.

Mas‘ul: O‘quv ishlari bo‘yicha prorektor Sh.A.Boymuradov, Moliya – iqtisod prorektori S.Dustmuradov, fakultet dekanlari.

Muddat: 2023- yil 15 may.

Qaror bir ovozdan qabul qilindi va tasdiqlandi. Ilmiy Kengash o‘z ishini yakunladi.

**O'quv ishlari
bo'yicha prorektor**



Sh.Boymuradov

Ijrochi: G.Ismailova
ID: 343079
Sana: 04.05.2023